

UDK:332

Shamsieva Mohigul Olimjon qizi,
Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti tayanch doktoranti

PAXTA-TO'QIMACHILIK SEKTORINI KLASTERLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotasiya

Klasterlash iqtisodiy mexanizm sifatida hududlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada Buxoro viloyati paxta-to'qimachilik sektorini klasterlash jarayonining iqtisodiy afzalliklari, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llari tahlil qilingan. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda investisiya muhitini yaxshilash orqali hududning eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: klasterlash, iqtisodiy mexanizm, paxta-to'qimachilik klasterlari, innovatsiya, investisiya, eksport.

Abstract

Clustering as an economic mechanism serves to increase the competitiveness of regions. This article analyzes the economic benefits of the clustering process of the cotton-textile sector of the Bukhara region, existing problems and ways to solve them. The possibilities of increasing the export potential of the region through the introduction of innovative technologies and improving the investment climate are described.

Keywords: clustering, economic mechanism, cotton-textile clusters, innovation, investment, export.

Аннотация

Кластеризация как экономический механизм служит повышению конкурентоспособности регионов. В данной статье анализируются экономические преимущества процесса кластеризации хлопково-текстильного сектора Бухарской области, существующие проблемы и пути их решения. Описываются возможности повышения экспортного потенциала региона за счет внедрения инновационных технологий и улучшения инвестиционного климата.

Ключевые слова: кластеризация, экономический механизм, хлопково-текстильные кластеры, инновации, инвестиции, экспорт.

Kirish

Klasterlash iqtisodiy mexanizm sifatida hududlarning raqobatbardoshligini oshirishda, ayniqsa, paxta va to'qimachilik kabi an'anaviy tarmoqlarda muhim vosita hisoblanadi. Paxta va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda boy tajribaga ega Buxoro viloyati globallashtirish va bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi vazifa va imkoniyatlarga duch kelmoqda. Buxoro viloyati paxta-to'qimachilik sanoatini klasterlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning dolzarbligi zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurati bilan bog'liq.

Paxta va to'qimachilik sanoati Buxoro viloyati iqtisodiyoti uchun asosiy tarmoqlardan biri bo'lganligi sababli aholining salmoqli qismini ish bilan ta'minlash, turdosh tarmoqlarni rivojlantirish, hududning eksport salohiyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Biroq, tabiiy resurslar va an'analar mavjudligiga qaramay, sanoat bir qator muammolarga duch kelmoqda: eskirgan texnologiyalar, investitsiyalar yetishmasligi, tashqi bozorlar bilan yuqori darajada rivojlanmagan integratsiya va mahsulotlarning past qo'shilgan qiymati. Bunday sharoitda Buxoro viloyati sharoitida paxta-to'qimachilik sanoatida klasterlash amaliyotlarining yanada

takomillashtirish resurslardan yanada oqilona foydalanish, tannarxni pasaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini berishi mumkin.

Asosiy qism

Klasterlashtirishning yaqqol afzalliklariga qaramay, paxta-to'qimachilik sohasi bir qator muammolarga duch kelmoqda. Birinchidan, jarayonning turli ishtirokchilari o'rtasida muvofiqlashtirishning yetishmasligi sa'y-harakatlarning parchalanishiga va sinergiyaning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning yetishmasligi o'sish imkoniyatlarini cheklaydi. Uchinchidan, marketing tadqiqotlari va iste'molchilar talabini tahlil qilishga yetarlicha e'tibor bermaslik raqobatbardosh bo'lmagan mahsulotlar ishlab chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Klasterlashtirish sohaning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sifatini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Biroq, bu maqsadlarga erishish uchun bozor ishtirokchilarining sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq muammolarni kompleks hal qilish kerak.

Samarali klasterlashuv milliy va mintaqaviy darajalarda qo'llab-quvvatlovchi davlat siyosatlarini talab qiladi. Shu ma'noda Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilayotgan klasterlash strategiyasida boshqa mamlakatlar klasterlash modeliga nisbatan nihoyatda o'zgacha munosabatda bo'linadi. K.Ketels hukumat siyosati klasterga xos ustunliklarning barcha elementlariga ta'sir qila olishi mumkinligini ta'kidlaydi. Hukumat ko'pincha infratuzilmaning katta qismlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, u raqobat va talabga ta'sir ko'rsatadigan asosiy tartibotlar va qoidalarini belgilaydi va klaster mavjudligiga, masalan, sarmoya kiritish uchun boshqa joylardan kompaniyalarni yo'naltirish orqali ta'sir qiladi. So'nggi paytlarda olib borilgan tadqiqotlar hukumat siyosatini turli geografik darajalarda - mamlakatlararo, milliy, mintaqaviy va hududiy darajagacha bo'lgan hukumat rolini ajratib ko'rsatishni tabaqalashtirilgan tarzda ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi [11].

MDH mamlakatlari olimlaridan L.A.Tutayeva K.Ketels fikrlariga hamohang fikrlar bilan bo'lishadi. U klasterlash siyosatida davlat faoliyatining 5 ta eng muhim yo'nalishini ajratib ko'rsatadi [15]:

1. klaster doirasida konstruktiv muloqot uchun shart-sharoitlar yaratish va uning ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan vositachilik;
2. hududda talabni rag'batlantirish va iste'molchilarning xohish-istaklarini shakllantirish, iqtisodiyotning turdosh va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlarini, davlat buyurtmalarini rivojlantirish;
3. mintaqada zarur kompetensiyalar va klasterning intellektual kapitalini shakllantirish uchun ta'lim sohasini tartibga solish ;
4. tashqi aloqalarni rag'batlantirish va savdo to'siqlarini bartaraf etish, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, infratuzilma va investitsiya loyihalarini amalga oshirish;
5. qulay tarkibiy sharoitlar yaratish: makroiqtisodiy, institutsional va boshqalar.

Mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish sharoitida klasterlash konsepsiyasini amaliyotda qo'llash doirasida davlat tomonidan tartibga solish mexanizmidan foydalanish, bir tomondan, mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini himoya qilsa, ikkinchi tomondan, raqobat muhitini rivojlantirish va shu bilan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish yo'li bilan iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, klasterlashtirishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi deganda klasterlarni yaratish va ularning faoliyatiga davlat ta'sirining shakllari, usullari va vositalari majmui tushuniladi.

Klasterlash strategiyasi mintaqaviy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va uni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishda harakatlantiruvchi omil bo'lishi mumkinligini hisobga olib, sohani tubdan qayta qurishga qaratilgan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bizningcha, strategiyani amalga oshirish dasturi uzoq muddatlarni ko'zlashi kerak, masalan, kamida 5 yil muddatga klasterni rivojlantirishning strategik maqsad va vazifalariga asoslanishi kerak. Strategiyani amalga oshirish dasturidan kelib chiqqan

holda, shuningdek, klaster faoliyatining batafsil rejasini ishlab chiqish, unda muddatlar, mas'ul shaxslar va ijrochilar ko'rsatilishi kerak. Ayni damda O'zbekistonda davlatning iqtisodiyotga ta'siri darajasi va ko'lamiga to'g'ri baho bergan holda mintaqada klasterlash strategiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bo'lishi kerak, degan xulosaga keldik:

- iqtisodiyotning ustivor soha va tarmoqlarining klasterlash nuqtai-nazaridan salohiyatini puxta o'rganish;
- klasterlarni shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish;
- eng katta klaster salohiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarda va sohalarda klaster tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish;
- klasterlarni yaratish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini, shu jumladan, davlat tomonidan tartibga solishning shakl va usullari majmuini ishlab chiqish.

Agrosanoat majmuasini klasterlash ham hudud, ham tarmoq yuksalishini ta'minlashga qaratilgan mezo-iqtisodiy tuzilma sifatida uzoq muddatli va yangi chaqiruvlarga moslashuvchan, ya'ni strategik bo'lishi kerak. Strategiya biznes uchun o'ziga xos davlat buyurtmasi vazifasini o'taydigan agrosanoat majmuasini rivojlantirish davlat dasturlariga mos kelishi hamda hududiy agrar klasterga yo'naltirilgan siyosatning davomi bo'lishi kerak.

O'zbekiston agrosanoat tarmog'ida klasterlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, agrosanoatga sarmoya kiritishni rag'batlantirish, fermerlar va ilmiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks davlat siyosatini ishlab chiqish zarur. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, klasterlashtirish agrosanoat majmuasini modernizatsiya qilish va uning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirishning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Ayniqsa, klasterlashtirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Birinchidan, klasterlarni qo'llab-quvvatlashning huquqiy va institutsional asoslarini yaratish zarur. Bu klaster ishtirokchilari uchun soliq imtiyozlari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari va tadqiqotni moliyalashtirishni o'z ichiga olishi mumkin. Ikkinchidan, infratuzilmani rivojlantirish muhim: ixtisoslashtirilgan texnoparklar, ilmiy markazlar va logistika markazlarini yaratish. Uchinchidan, sanoatga investitsiyalarni faol jalb qilish kerak. Bu ham ichki, ham xorijiy investitsiyalarni rag'batlantiradigan jozibador investitsiya muhitini yaratish orqali mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy sharoitlarda ishlash uchun yuqori malakali kadrlar mavjudligini ta'minlash uchun ishchilarni ta'lim va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish zarur.

Muvaffaqiyatli klasterlashning muhim tarkibiy qismi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. Bu nafaqat mavjud ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, balki yangi materiallar va texnologiyalarni ishlab chiqishni ham o'z ichiga oladi. Ilmiy muassasalar bilan hamkorlik zamonaviy bozor talablariga javob beradigan yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishga hissa qo'shishi mumkin.

Buxoro viloyati paxta-to'qimachilik sanoatida klaster tashabbuslarini yanada takomillashtirish va rivojlantirish yo'nalishlarini 3 ta ssenariy asosida davom ettirish lozim, deb o'ylaymiz: **1-ssenariy.** Paxta xom-ashyosini yetkazib beruvchilar va klasterlar tuzilmalari orasidagi shartnomaviy munosabatlarda to'la erkinlikka erishish; **2-ssenariy.** Paxta-to'qimachilik klasterlari ishtirokchilarini iqtisodiy dastaklar vositasida rag'batlantirish; **3-ssenariy.** Paxta-to'qimachilik erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish.

1-ssenariy. Paxta xom-ashyosini yetkazib beruvchilar va klasterlar tuzilmalari orasidagi shartnomaviy munosabatlarda to'la erkinlikka erishish

Hozirda fermer xo'jaliklar va klaster boshqaruvi orasida fyuchers shartnomalari amal qiladi. Ushbu shartnomalarning paxta yetishtiruvchi xo'jaliklar uchun noqulay (paxtani qabul qiluvchilar uchun juda qulay) shartlar asosida tuzilishi hisoblanadi. Kelgusida klaster boshqaruvi va paxta yetishtirib beruvchilar o'rtasida paxtani shartnomada belgilangan hajmlarda va etkazib berish vaqtidagi narxlarda etkazib berishni nazarda tutuvchi forvard shartnomalari asosidagi munosabatlarni o'rnatishlari ko'proq manfaat keltiradi, deb o'ylaymiz. Forvard shartnomalarida tomonlar muayyan miqdordagi paxtani kelgusi aniq bir sanada, oldindan kelishilgan shartlar

asosida, shu kungi bozor narxida etkazib berish haqida kelishib oladilar. Forvard shartnomalari ixtiyoriy ravishda ikki tomon o'rtasida tuziladi va u bozordagi narx o'zgarishlariga ta'sir qiluvchi xavflarni boshqarish imkonini beradi. Bizningcha, forvard shartnomalarining 2 xil variantini taklif qilish mumkin bo'ladi: 1. Hajmi va narxlar koridori (birja) narxlaridan muayyan foizli o'zgarishlarni inobatga olinadi; 2. Dastlabki shartnoma hosilning hajmi bo'yicha, hosil yetilgandan so'ng esa yakuniy shartnoma narx elementi real bozor (birja) narxlaridan kelib chiqib imzolalanadi. Shartnomalarda bo'naklar ko'rinishidagi moliyaviy ta'minot, kimyoviy o'g'itlash, yoqilg'i, suv va soliqlarni to'lash uchun xarajatlarning qoplab berilishi ko'zda tutilishi kerak.

Forvardli shartnomalar jarayoniga nafaqat yuridik, balki jismoniy shaxslarning ham ishtirok etishi mumkin bo'lishi kerak. An'analar bo'yicha paxtani yetishtirib beruvchi korxonalar bu - fermer xo'jaliklar hisoblanadi. Ammo, kelishuvlar bo'yicha bu jarayonga uy xo'jaliklarini, dehqon xo'jaliklarini, issiqxona xo'jaliklarini forvardli shartnomalar asosida (xuddi pilla yetishtiruvchilar kabi) tashkil etish kerak.

Narxlarning maqbul nisbatlarini o'rnatish zarurati sanoat ishlab chiqarishining turli tarmoqlaridagi ko'plab sanoat korxonalari bilan birga xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarning asosiy yetkazib beruvchisi bo'lgan paxta yetishtiruvchi xo'jaliklar uchun ham dolzarbdir. Shunday shart-sharoitlarda davlat xarid narxlari va paxta shartnomaviy narxlari erkin bozor elementlarini to'la o'zida aks ettirishi kerak, deb o'ylaymiz. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda bozorda, masalan, paxta xomashyosi uchun narxlarning kuchli nomutanosibligi mavjud bo'lib, bu o'z navbatida qishloq xo'jalik korxonalarining samarali ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, qayta ishlash sanoati korxonalari va turdosh tarmoqlar (masalan, yog'-moy sanoati) korxonalari mahsulotlariga narxlarning ma'lum darajada ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi o'zgaruvchanligi va sanoat korxonalari rentabelligini beqarorligini keltirib chiqarishi mumkin.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida moddiy jihatdan paxta yetishtirish sermehnat va serxarajat soha hisoblanadi. Bundan tashqari uni ishlab chiqarish sikli ham juda uzoq davom etadi. Shu sababli klaster tuzilmalari va paxta yetishtiruvchilari o'rtasidagi integrasiyalashuv shartnomalari ko'rinishida bo'lsa – avans to'lovlari bo'yicha asosiy to'lovlari shartnomalarda o'z aksini topishi kerak.

2-ssenariy. Paxta-to'qimachilik klasterlari ishtirokchilarini iqtisodiy dastaklar vositasida rag'batlantirish

Sanoat ishlab chiqarishining ustuvor tarmoqlari korxonalarini soliqlar vositasida tartibga solish sanoat klasterlarini shakllantirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mavjud soliq tizimi yaratilgan qo'shilgan qiymat uchun soliqni qishloq xo'jaligi korxonalari bo'ynidan ozod qilishga qaratilishi kerak, bizningcha. Garchi bilvosita soliqlar korxona-tashkilotlarning moliyaviy natijalariga ta'sir etmaydi degan fikr hukm sursa-da, sotilgan mahsulotlar hajmlari orqali ta'sir doirasi ko'rinadi. Masalan, yakuniy sanoat mahsulotlari iste'molchilari QQSni asosiy to'lovchilari sanalishadi, bu ularning to'lov qobiliyatini pasaytiradi va talab hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Fermer xo'jaliklari faoliyatida hosil uchun klasterlardan puli kelib tushmasdan turib soliq to'lovlari va to'lovlarni kechiktirganlik uchun soliq penyalari ham undirib olish holatlari ham uchramoqda. Bundan tashqari, soliq imtiyozlarini berish soliqqa tortish tizimida turli sabablar ta'sirida jiddiy buzilishlarni keltirib chiqarishi va sanoat sohasida nomutanosiblikning yanada chuqurlashishiga olib kelishi mumkin. Ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantiradigan sanoat korxonalari mahsulotlari taklifini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llash eng samarali bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Klasterlarning ustunliklarini yanada ko'proq yuzaga chiqarish uchun soliqlardan, bojlardan to'liq yoki qisman ozod qilish imtiyozlarini ko'zda tutuvchi zonal siyosatni yuritish kerak, deb o'ylaymiz. Bu borada soliqlardan qisman imtiyoz berish ko'rinishida EIZ, kichik sanoat zonolari, texnoparklar va boshqa infrastrukturalar imkoniyatlariga tayanish lozim, deb o'ylaymiz.

Sohada soliq imtiyozlarini taqdim etishdan tashqari, loyihalarni tashkiliy qo'llab-quvvatlash, maqsadli subsidiyalar, investitsion soliq kreditlari va boshqa manbalardan moliyaviy yordam ko'rsatadi. Paxta-to'qimachilik klasteriga maqsadli investitsiyalarning katalizator printsipi bo'yicha ko'proq jalb

etilishi investitsiya jarayonini rivojlantirishni, davlat investitsiyalari va yirik xususiy investitsiyalarni rag'batlantiradi.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlarida investitsiyalash tajribalarida DXSh vositalari, byudjet moliyalashtirish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, grantlar, birgalikda moliyalashtirish shartlari bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish kabi moliyalashtirish mexanizmlarining ko'proq samara berishi isbotlangan. Klasterning investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun ham davlat-xususiy sheriklik mexanizmi zarur. Infratuzilma elementlarini yaratishda (texnologik parklar, biznes-inkubatorlar, transport va logistika infratuzilmasi) esa, ko'proq markaziy va mahalliy byudjetlarga murojaat qilinadi. Paxta-to'qimachilik sohasida agrar-sanoat klasterlarini rivojlantirish innovatsion ishlab chiqarish infratuzilmasining mavjudligini taqozo etadi, bu esa yirik investitsiyalarni talab qiladi. Bu faqat davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik orqali mumkin. Shu munosabat bilan klaster tizimi doirasida ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratishni moliyalashtirishning istiqbolli mexanizmlaridan biri davlat-xususiy sheriklikning turli shakllaridan foydalanish bo'lishi mumkin [13].

Sanoat klasteri doirasida ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda DXSh mexanizmi sanoat klasteri doirasida xususiy va davlat sektorining resurslarini (shu jumladan moliyaviy) birlashtirishga, zarurat bo'lganda esa muhim ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlariga davlat egaligini saqlab qolishga imkon beradi; biznes tuzilmalari tomonidan qo'llaniladigan eng istiqbolli texnologiyalarni joriy etish. DXShning asosiy elementlari muhandislik klasterini rivojlantirish dasturini amalga oshirishda aniqlanadi: sub'ektlar, ob'ektlar, o'zaro ta'sir qilish ishtirok etish shartlari.

Klasterning umumiy ehtiyojlarini qondiradigan loyihalarni, ya'ni klaster tarkibidagi korxonalarning aksariyat qismini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur. Bundan tashqari, klasterning raqobatbardoshligini oshirishdagi qiyinchiliklarni muhokama qilish uchun kommunikatsiya platformalarini yaratish orqali biznesning o'zini-o'zi tashkil etishga yordam beruvchi loyihalarni davlat - tomonidan moliyalashtirish muhim rol o'ynaydi [15]. O'zbekistonda agrar va agrar-sanoat klasterlarini rivojlantirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda xalqaro, xorijiy va milliy manbalardan ajratiladigan grantlar ham muhim ahamiyatga ega: a) Jahon banki, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Erasmus+, Kichik grantlar dasturi va boshqa tashkilotlarning grant mablag'lari; b) O'zbekistonda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ilmiy-texnik rivojlanish dasturlari doirasidagi grantlari.

Klasterning moliyaviy-investitsion asosi investitsiya fondlari, banklar va boshqa ixtisoslashgan moliya tuzilmalari faoliyatining hamkorligi asosida shakllanishi kerak [13]. Amalda moliyaviy yordamni barcha muhtoj korxonalar o'rtasida adolatli taqsimlashni ta'minlash mumkin emas. Hozirgi shart-sharoitlar talablaridan kelib chiqib sanoatga emas, balki qishloq xo'jaligiga moliyaviy ko'maklar kerak, deb o'ylaymiz.

Agrobiznes vakillaridan qishloq xo'jaligini subsidiyalar majmuasi yordamida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va oshirishga qaratilgan choralar ko'proq manfaat keltiradi. Paxta va uni qayta ishlash mahsulotlarini tashishda tovar intervensiyalari hamda subsidiyalar mexanizmini takomillashtirish shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, an'anaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini takomillashtirish, biznes vakillarining fikricha, klasterning raqobatdosh ustunliklarini mustahkamlashga va paxtaning ilg'or navlarini yetishtirish uchun subsidiyalarni oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bizningcha, paxtani ekish bilan bog'liq barcha xarajatlar subsidiyalardan qoplanishi masalasida klasterni rivojlantirish tashkilotlarini shakllantirish tashabbuskori sifatida agrosanoat majmuining boshqaruv organlari tashabbus ko'rsatishlari kerak. Shu bilan birga, mahalliy byudjet mablag'larini agrobiznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida tegishli tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish mumkin.

Paxtachilikda ekin maydonlarini sug'urtalashga mos sug'urta tariflari ishlab chiqilishi shart. Sug'urtalangan ekinlar maydoni bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilmasligi ko'plab fermer xo'jaliklari uchun sug'urta shartlari hali maqbul emasligini tasdiqlaydi.

Buxoro viloyati paxta-to'qimachilik klasterini moliyaviy sog'lomlashtirish va iqtisodiy mexanizmi takomillashtirish quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutishi kerak,

deb o'ylaymiz:

- mahalliy hukumatning ham, klasterlarning ham xom-ashyo va tovar intervensiyalari qilishga ishtirok etishlari kerak;
- paxta va paxta mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va investitsiya qilishda risklarni sug'urtalash mexanizmlaridan oqilona foydalanishlari kerak;
- tavakkalchilikdan va ob-havo injiqliklaridan xoli dehqonchilikning zamonaviy texnologiyalarini joriy eta boshlash kerak;
- seleksiya va urug'chilik faoliyatini rivojlantirish hamda ekinlarni sug'urta qilish dasturlarini joriy etish asosida viloyatda kafolatlangan paxta yetishtirish zonalarini yaratish va boshqalar.

3-ssenariy. Paxta-to'qimachilik erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish

Paxta-to'qimachilik erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish kerak va uning ishtirokchisi degan maqomni ishlab chiqish kerak. Maqomni berish uchun ma'lum talablarni bajarish kerak:

- paxta tozalash va ip-yigiruv korxonalari uchun tayyor mahsulot va uning chiqindilarning (ro'yxat ishlab chiqiladi) qiymat o'lchovidagi hajmining 40 % dan ortiq eksportga yo'naltirsa har oxirgi 2 yil natijalariga ko'ra har 3-yilda imtiyozli maqomdan foydalanish mumkin bo'ladi. 2030 yilgacha;
- to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari uchun tayyor mahsulot va uning chiqindilarning (ro'yxat ishlab chiqiladi) qiymat o'lchovidagi hajmining 60 % dan ortiq eksportga yo'naltirsa har oxirgi 2 yil natijalariga ko'ra har 3-yilda imtiyozli maqomdan foydalanish mumkin bo'ladi. 2035 yilgacha.

Xulosa va tavsiyalar

Paxta-to'qimachilik sektorini rivojlantirish jarayonida klasterlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizmlar sektorning barqarorligi va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ishlab chiqarish zanjiridagi barcha ishtirokchilar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirishni talab qiladi.

Sohada raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida ilgari surilgan ssenariylar, innovasion yondashuvlar hamda investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan kompleks choralar muhim o'rin tutadi, deb o'ylaymiz. Xususan, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish sektorning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvlar natijasida eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilash kabi sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish imkoniyati yuzaga kelishi mumkin. Bu esa nafaqat tarmoqning, balki milliy iqtisodiyotning strategik ustuvorligini ta'minlashga zamin yaratadi, deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda qabul qilingan PF-158-sonli "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi
3. PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.07.2024 yildagi PF-103-sonli "Paxtachilik sohasi korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy holatini yaxshilashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. (<https://lex.uz/docs/-7032178>)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 07 maydagi PK-3698- sonli «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovasiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori
6. Bergman E. M. Industrial and Regional Clusters :Concepts and Comparative Applications / E. M. Bergman, E. J. Feser. – 1999. – URL: <http://www.rri.wvu.edu/WebBook/Bergman-Feser/contents.htm>
7. Caniels M.C.J., Verhagen H.J.M. (2007). The role of clusters in regional economic development: A review of empirical research. _Regional Studies_, 41(5), 617-628.

8. Delgado, M., Porter, M. E., & Stern, S. (2014). Clusters, convergence, and economic performance. **Research Policy**, 43(10), 1785-1799.
9. Enright, M. J. (2003). Regional clusters: What we know and what we should know. **Innovation Clusters and Interregional Competition**, 99-129.
10. Porter M.E. (1998). Clusters and competition: New agendas for companies competitors & regions. In G.L. Clark & M.P. Feldman (Eds.), *The Oxford Handbook of Economic Geography* (pp. 198-216). Oxford University Press.
11. Ketels, Christian. (2003). The Development of the cluster concept—Present experiences and further developments. P.1-12
12. Владимиров Юрий Львович, Третьяк Владимир Петрович О классификациях кластеров предприятий // Управление наукой и наукометрия. 2008. №7. Стр. 72-86 (<https://cyberleninka.ru/article/n/o-klassifikatsiyah-klasterov-predpriyatiy>)
13. Ибраева Алия Кабышевна. Повышение конкурентоспособности промышленных предприятий на основе использования кластерной стратегии. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2018. Стр. 146
14. Халқ сўзи (online). "Локомотив"лар, "вагон"лар, рельсларга "лом" тикадиганлар — улар кимлар? Кластерларнинг тараққиётдаги аҳамияти ҳақида батафсил суҳбат. Саид РАҲМОНОВ, («Халқ сўзи») суҳбатлашди. 25 Февраль 2021 й. <https://xs.uz/uzkr/post/lokomotivlar-vagonlar-reyslarga-lom-tiqadiganlar-ular-kimlar-klasterlarning-taraqqiyotdagi-ahamiyati-haqida-batafsil-suhbat>
15. Тутаева Любовь Александровна. Совершенствование управления региональным зерновым кластером (на примере Оренбургской Области). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Саратов 2013. стр. 156.